

## KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

*Pazilidinov Muxiddin Maxammadin o'g'li*

*Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti*

*Gmail: [m.muhiddin1995@gmail.com](mailto:m.muhiddin1995@gmail.com)*

*+998-99-538-95-95*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlanirishda raqamli texnologiyalarning tutgan o'rni va ularning iqtisodiy samaradorlikni oshirishdagi ahamiyati tahlil qilingan. Raqamli infratuzilmaning rivojlanishi, elektron tijorat va to'lov tizimlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlarining misolida amaliy natijalar ko'rsatib o'tilgan. Maqolada O'zbekiston sharoitida kichik biznesda raqamli texnologiyalarni joriy etish bo'yicha mavjud muammolar, ularni bartaraf etish yo'llari hamda zamonaviy texnologik yechimlar asosida ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar bayon etilgan. Tadqiqot natijalari asosida kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini oshirish va barqaror rivojlanishini ta'minlash bo'yicha muhim ilmiy-amaliy xulosalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, raqamli texnologiyalar, raqobatbardoshlik, elektron tijorat, innovatsiya, elektron to'lov, CRM tizimi, iqtisodiy samaradorlik, O'zbekiston

### KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik milliy iqtisodiyotning eng muhim tarmoqlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan hozirgi davrda ushbu sohalarning samaradorligini oshirishda zamonaviy raqamli yechimlardan foydalanish dolzarb masalaga aylanmoqda.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ularning infratuzilmasini yaxshilash va raqamli transformatsiyani jadallashtirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar olib borilmoqda. Xusan, elektron tijorat, elektron to'lov tizimlari, onlayn savdo maydonchalar, CRM va ERP tizimlarining joriy etilishi kichik biznes subyektlarining bozor talablariga moslashuvchanligini kuchaytirmoqda.

Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarni joriy etish jarayonida tadbirkorlik subyektlari duch kelayotgan muammolar, ularning raqobatbardoshligini oshirishdagi imkoniyatlari va mavjud infratuzilmaning holatini chuqr ilmiy tahlil qilish bugungi kundagi dolzarb vazifalardan biridir.

Ushbu maqolada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlanirishda raqamli texnologiyalarning tutgan o'rni, ulardan samarali foydalanish imkoniyatlari hamda mavjud muammolar o'rganiladi. Shuningdek, muallif tomonidan O'zbekiston misolida tahliliy ma'lumotlar asosida tegishli xulosalar va takliflar ishlab chiqiladi.

## ASOSIY QISM

O'zbekiston Respublikasida elektron to'lov tizimlarining rivojlanishi, nafaqat yashirin iqtisodiyotning ko'lagini qisqartirish, balki moliyaviy shaffoflikni ta'minlash va iqtisodiyotni rasmiylashtirishni kuchaytirish imkoniyatlarini yaratadi. 2023 yil yakunlariga ko'ra, O'zbekistonning elektron to'lovlar bo'yicha jami hajmi 100 trillion so'mni tashkil etdi, bu esa 2022 yilga nisbatan 20% o'sishni ko'rsatadi. Elektron to'lovlarini joriy etish, davlat xizmatlarini ko'rsatishda naqd puldan foydalanishni kamaytirish va shu orqali iqtisodiy faoliyatni rasmiylashtirishni kuchaytirishning samarali yo'llini taqdim etadi. 2023 yilda davlat xizmatlari uchun elektron to'lovlar ulushi 65% ga yetdi, bu esa O'zbekiston hukumati tomonidan naqd pul operatsiyalarining qisqarishini ta'minlashga qaratilgan strategiyaning samarali amalga oshirilayotganini ko'rsatadi.

Yashirin iqtisodiyotning soliq bazasiga ta'siri va soliq to'lashdan bo'yinturishning oldini olishga qaratilgan tadbirlarning muvaffaqiyati shuni ko'rsatadiki, elektron to'lov tizimlarining kengaytirilishi, ayniqsa, O'zbekiston Respublikasida yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va rasmiy soliq bazasini kengaytirish, soliq qonunchiligiga rioya qilishni kuchaytirish va noqonuniy moliyaviy faoliyatni nazorat qilishda muhim rol o'ynashi mumkin. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, 2017 yilga nisbatan, 2022 yilga kelib yashirin iqtisodiyotning ulushi yalpi ichki mahsulotning 25% dan 20% gacha qisqargan, bu esa elektron to'lovlar tizimlarining kengayishi bilan bog'liqdir.

Raqamli to'lovlarini joriy etish, ayniqsa, norasmiy iqtisodiy faoliyatni kamaytirish va iqtisodiy jarayonlarning shaffofligini oshirish orqali mamlakatning moliyaviy tizimida yangilanishlarga sabab bo'ladi. 2023 yil oxiriga kelib, O'zbekistonda 17 milliondan ortiq naqd puldan foydalanmaydigan aholi mavjud bo'lib, bu jami aholi sonining 70% ni tashkil etadi. Ushbu raqamlar, elektron to'lovlar tizimlarining kengayishi, naqd puldan foydalanishni qisqartirish va moliyaviy inklyuzivlikni oshirishda o'z samarasini ko'rsatadi.

Shuningdek, elektron to'lov tizimlarining ommalashishi, ayniqsa, moliyaviy inklyuzivlik va iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirishga xizmat qiladi. 2023 yilga kelib, O'zbekistonda mobil to'lov tizimlarini faol ishlataligani foydalanuvchilar soni 12 milliondan oshdi, bu esa mamlakatdagi internet foydalanuvchilarining 50% dan ortig'ini tashkil etadi. Elektron to'lovlarini qabul qilish, o'z navbatida, an'anaviy bank hisoblariga ega bo'limgan, chekka hududlarda yashovchi aholi qatlamini ham iqtisodiy jarayonlarga jalb qilish imkoniyatini yaratadi.

Elektron tranzaktsiyalarini qo'llash orqali, mamlakat iqtisodiyoti ancha soddalashadi va shaffoflikni oshirishga yordam beradi. 2023 yilda elektron to'lovlar orqali amalga oshirilgan jami tranzaktsiyalar hajmi 80 trillion so'mni tashkil etdi, bu o'z navbatida, naqd pul operatsiyalarini 40% ga kamaytirdi. Ushbu samaradorlik, nafaqat vaqt ni tejash, balki xarajatlarni qisqartirishga ham olib keladi.

Elektron to'lov tizimlarining rivojlanishi, shuningdek, naqd pul tranzaktsiyalariga bo'lgan qaramlikni kamaytirish, kiberxavfsizlikni ta'minlash va firibgarliklarni oldini olishga hamda moliyaviy operatsiyalarini tezlashtirishga yordam beradi. 2022 yilda O'zbekistonda elektron to'lovlar bilan bog'liq firibgarlik holatlari

5% ga kamaygan, bu esa tizimlarning xavfsizligi va himoyasining yaxshilanishi bilan bog'liqdir.

Shu bilan birga, elektron to'lovlarni rag'batlantirish, mamlakatda soliq to'lashni oshirishga va soliqdan bo'yinturishni kamaytirishga yordam beradi. Elektron tizimlar, daromad va xarajatlar haqidagi aniq ma'lumotlarni ta'minlagan holda, jismoniy shaxslar va korxonalarga o'z moliyaviy holatini yaxshilab nazorat qilish imkoniyatini beradi. 2023 yilda soliq to'lashga rioya qiluvchi yuridik shaxslar soni 30% ga o'sgan, bu esa elektron to'lov tizimlarining ommalashishi va rasmiy iqtisodiy faoliyatni oshirishga xizmat qilganligini ko'rsatadi.

O'zbekistonda elektron tijoratni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar mavjud. Xususan, birinchidan, savdo munosabatlari ishtirokchilarining axborot xavfsizligi va kriptografik himoyasini ta'minlash vositalari va texnik yechimlarining mavjudligi; ikkinchidan, mijozlarga banklararo va masofaviy xizmat ko'rsatishga qaratilgan individual bank texnologiyalarining zarur ishlanmalarining mavjudligi; uchinchidan, jahon axborot makoniga chiqish imkonini beruvchi zarur texnik va texnologik bazani jadal rivojlanishi.

Mamlakatimizda elektron savdoning rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Masalan, aholi onlayn xaridlar uchun telegram botlaridan faol foydalanishadi. O'z navbatida ushbu ilova to'lovlarni amalga oshirish, uning xavfsizligini ta'minlash, hamda rasmiy oldi-sotti bitimlari tuzish imkonini bermaydi. Buning natijasida, iste'molchilar va sotuvchilar huquqlarini himoyalash, kiberjinoyatchilikning oldini olish masalalarida muammolar vujudga kelmoqda. Bundan tashqari, iste'molchilar faqat kichik xaridlarni amalga oshirishi, kattaroq xaridlar bo'yicha to'lovlarni amalga oshirishida qo'rquv va ishonchsizlik bildirishmoqda. Bu kabi holatlar raqamli moliyaviy xizmatlardan foydalanuvchilarining ko'payishiga salbiy ta'sir etadi.

Elektron to'lov tizimlari samarali ishlashida internet ulanishlar barqarorligi va mamlakatimizning barcha hududlarini qamrab olishi juda muhimdir. Mamlakatimizning barcha hududlarida global internet tarmog'iga ulanish bo'yicha bir qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Internet xizmatidan foydalanuvchilar soni sezilarli ortdi. Shu bilan birga internet tarmog'ining kengayish sur'atlari korxonalar sonining o'sish sur'atlaridan orqada qolmoqda. Bundan tashqari mamlakatimizda internet foydalanuvchilari asosan mobil internet barcha hududlarni, korxona va tashkilotlarni imkon qadar to'liq va tez internet bilan ta'minlash, uni sifatini yaxshilash hamda mahalliy uyali aloqa operatorlari aloqa xizmatlarini samarali yo'lga qo'yish, internet qamrovi faqat yirik shaharlarda emas balki qishloq joylarda ham ishlashini ta'minlash lozim.

O'zbekistonda "Raqamli xizmatlar qamrovi va sifatini oshirish hamda soha, tarmoq va hududlarni raqamli transformatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi prezident qarori qabul qilindi. Qaror bilan, jumladan, quyidagilar tasdiqlandi:

- "Raqamli hukumat" va "Raqamli hudud" dasturlari doirasida 2023—2024-yillarda amalga oshiriladigan 300 ta ustuvor loyihalar ro'yxati;
- 2023-yil yakunigacha Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida ko'rsatilayotgan xizmatlar sonini 570 taga yetkazish doirasida portalda birinchi navbatda joriy etiladigan 95 ta xizmat va servislar ro'yxati;

- 2023-yil 1-dekabrdan aholi va tadbirkorlardan talab qilish bekor qilinadigan 47 turdag'i ma'lumotlar ro'yxati;
- aholi va tadbirkorlarga xizmatlardan foydalanish holati bo'yicha yuboriladigan eslatma va xabarnomalar ro'yxati.

Shuningdek "Raqamli geoportal" axborot tizimi va "Xalq nazorati" platformasi 2023-yil 1-sentabrgacha Angren, Ohangaron, Yangiyo'l, Chirchiq va Nurafshon shaharlarida, 2023-yil yakunigacha Jizzax va Urganch shaharlarida ishga tushiriladi.

2023-yil 1-oktabrdan tadbirkorlarga elektron tijorat faoliyati doirasida erkin ombor bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarlar bilan chakana savdo operatsiyalarini amalga oshirishga ruxsat beriladi.

2023-yil 1-oktabrdan B2 va undan yuqori xorijiy til bilish darajasiga ega fuqarolar tomonidan tegishli yo'naliishlarda xalqaro IT-sertifikatlarni olish xarajatlarining 100 foiz qismini qoplash tizimi joriy etiladi.

Bitiruvchisi IT-xizmatlarni eksport qiluvchi IT-park rezidenti bo'lgan kompaniyalarga ishga joylashgan nodavlat o'quv markazlariga har bir bitiruvchi uchun BHMning 75 baravarigacha, nogironligi bo'lgan yoshlar uchun esa 105 baravarigacha bir martalik subsidiya ajratish yo'lga qo'yildi.

## NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki 2019-yilda onlayn to'lov infratuzilmasini rivojlantirish maqsadida VISA to'lov tizimi bilan o'zaro almashuv memorandumini imzoladi. Respublikadagi ko'plab banklar onlayn to'lovlarni qayta ishslashni osonlashtirish maqsadida elektron tijorat saytlariga to'lov dasturlari va xizmatlarini taklif qilib bormoqda. Biz bilamizki, elektron savdo va elektron to'lovlarni amalga oshirish hamda elektron to'lov tizimlari faoliyatini samarali yo'lga qo'yish uchun internetning ahamiyati juda muhimdir. Taqdidot davomida O'zbekistonda ommabop to'lov ilovalari tahlil etildi. O'zbekiston bozorda so'nggi yillarda mazkur xizmatni amalga oshiruvchi molivaviy muassalardan tashqari tijorat banklarning ham ishtiroki faollashdi. Albatta mamlakatimizda dastlab bu xizmatlarni amalga oshirib boshlagan Paynet, Payme va Click UP kabi ilovalarning bozorning nisbatan kattaroq ulushini egallashgan. Hususan, mazkur ilovalar yuklab olinishlari sonini tahlil etadigan bo'lsak, Payme va Click UP ilovalari 10 milliondan ortiq foydalanuvchilar tomonidan yuklab olingan bo'lsa, foydalanuvchilar sharhlari bo'yicha Payme ilovasi nisbatan ijobiy baholangan. Mamlakatimiz tijorat banklarning ilovalari ichida eng ko'p yuklab olingan ilovalar sifatida Uzumbank (5 mln.), TBC UZ (5 mln.), Anorbank, Davr bank, Zumrad va Hamkor banklarning (1 mln.) ilovalarini qayd etish mumkin. Shu bilan birga ularning mijozlar o'rtaсидаги reytinggi tahlili ko'rsatishicha, Zumrad va Anorbank ilovalari nisbatan yuqori ballga ega. Mazkur bank ilovalarining mijozlarni qamrab olishida ilovalar orqali keng qamrovli bank xizmatlarini onlayn foydalanish imkoniyati mavjudligi hamda ilovalarning tushunarli va qulayligi sabab bo'lgan. Aksincha, Mikrokreditbank, Ipoteka bank, Xalqbanki va boshqa ko'plab banklar mobil ilovalar orqali xizmat ko'rsatish imkoniyatlaridan samarali foydalanishmagan. Jumladan, Hamkorbank yuklab olishlar soni bo'yicha ancha yetakchi, ammo mijozlar bahosi ancha past (2,8), bu esa, mijozlar mazkur ilovadan foydalanishda turli

noqulayliklarga uchraganidan dalolat beradi. Tahlilimizda ikkita xorijiy bank ilovalari ham ko'rib chiqildi Mamlakatimizda so'nggi yillarda faoliyatini boshlagan TBS bank va Tengebankning o'z mobil ilovalari orqali onlayn xizmatlar ko'rsatib kelmoqda. TBS bank nisbatan ko'proq mijozlarni (1 mln) jalb etishga muvoffaq bo'lgan. O'z navbatida Tengebank ham yuklab olishlar soni bo'yicha ham reytinggi bo'yicha ancha past ko'rsatkichlarga egalar.

Mamlakatimizda raqamli transformatsiya jarayonlari iqtisodiyotning turli tarmoq va sohalarida, shu jumladan, tijorat sohalarida xam amalga oshirilmoqda. Elektron tijoratning internet savdo (internet do'konlar, savdo platformalari), raqamli marketing va elektron to'lov tizimlari kabi sohalari faol rivojlanmoqda.

1-jadval.

### O'zbekistonda keng foydalaniladigan to'lov ilovalari to'g'risida ma'lumot<sup>5</sup>

Nº	Elektron to'lov tizimlari nomi	Yuklab olganlar va foydalanuvchilar soni	Reyting	Sharxlar
1	Asakabank	500 ming +	4.7	19 000
2	Anorbank	1 mln +	4.7	227 000
3	CLICK Start	100 ming +	3.7	1 000
4	CLICK UP	10 mln +	4.7	273 000
5	DAVR MOBILE	1 mln +	3.6	13 000
6	Hamkor mobile	1 mln +	3.1	7 000
7	Oson	1 mln +	4.6	63 000
8	Zumrad	1 mln +	4.7	50 000
9	Alif Mobi	1 mln +	4.7	83 000
10	MKBANK mobile	500 ming +	2.9	4 000
11	Payme	10 mln +	4.7	420 000
12	Paynet	1 mln +	4.8	89 000
13	Tenge24	500 ming +	3.4	3 000
14	TBC UZ	5 mln +	4.8	77 000
15	Uzum Bank (Apelsin)	5 mln +	4.3	187 000

Tahlillarga ko'ra (2-jadval), axborot iqtisodiyoti va elektron tijorat sektorining yalpi qo'shilgan qiymati 2017-2022 yillar davomida qariyb 4.5 barobarga o'sgan va 27755.0 mlrd. so'mni tashkil etgan. Huddi shu davr mobaynida elektron tijorat hajmi esa 960 barobarga o'sganini va 9694.0 mlrd. so'mni tashkil etganini ko'rishimiz mumkin. Elektron tijorat rivojiga ta'sir qiluvchi omillardan yana biri bu internetdan foydalanuvchi obunachilar sonining o'sishidir. Agar 2017-yilda internetdan foydalanuvchi abonentlar soni 9,6 million kishini tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda internetdan foydalanuvchilar soni 23 million kishidan oshdi.

<sup>5</sup> Muallif tomonidan mustaqil tuzildi.

2-jadval.

### O'zbekistonda elektron tijoratga ta'sir etuvchi omillar va ularning o'zgarish tendentsiyasi<sup>6</sup>

Ko'rsatkichlar	2017	2018	2019	2020	2021	2022
Axborot iqtisodiyoti va elektron tijorat sektori hajmi, mlrd so'm.	6377.8	7732.1	8491.9	10777.0	16939.5	27755.0
Elektron tijorat hajmi, mlrd so'm.	10.1	105.2	260.0	591.4	3907.3	9694.0
Internetdan foydalanuvchilar soni, million kishi.	11168.0	13321.7	16386.2	19981.0	22987.2	26723.6
O'rtacha internet tezligi, mb/s	0.76	8.57	18.92	32.39	43.01	59.7
Internet tarmog'iga ulangan korxona va tashkilotlarning ulushi, %	27.2	27.5	26.2	21.1	17.5	18.8

O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilayotganiga qaramay, rivojlangan davlatlar bilan solishtirganda, respublikada elektron tijorat global miyisosida to'liq integratsiyalashuvi uchun yetarli darajada rivojlanmagan, mamlakatning jahon elektron tijorat bozoridagi ishtiroki juda pastligicha qolmoqda. "O'zbekistonda chakana savdo tarkibida elektron tijoratning ulushi 0,515 foizni, aholi jon boshiga esa atigi 0,87 AQSh dollarini tashkil etadi. Jahonda chakana tovar aylanmasi tarkibida elektron tijoratning ulushi 18 foizni, AQShda 13,6 foizni, Xitoyda 24,9 foizni, Qozog'istonda 2,6 foizni tashkil etadi".

Elektron to'lov tizimlarining muvaffaqiyatlari joriy etilishi uchun ishonchli internet aloqalari va xavfsiz to'lov tarmoqlarini o'z ichiga olgan mustahkam raqamli infratuzilma yaratish zarur. Bunda, infratuzilma bilan bog'liq mavjud muammolarni hal qilish va mamlakatning barcha hududlarida texnologik infratuzilmaning keng miyisosda ta'minlanishi asosiy ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Kiberxavfsizlik tahdidlari, xususan firibgarlik, ma'lumotlarning buzilishi va identifikatorlarni o'g'irlash kabi xavf-xatarlar elektron to'lov tizimlariga sezilarli tahdid soladi. Shu sababli, kiberxavfsizlikni mustahkamlash, ma'lumotlarni himoya qilishga oid qat'iy normativlar va qoidalarni joriy etish, shuningdek, raqamli tranzaktsiyalar xavfsizligiga ishonchni ta'minlash, ushbu tizimlarni qabul qilish va ulardan foydalanishni rag'batlantirish uchun muhim hisoblanadi.

Naqd pul operatsiyalariga nisbatan madaniy normativlar va imtiyozlar, shuningdek, raqamli to'lov tizimlariga bo'lgan ishonchsizlik, elektron to'lov tizimlariga o'tishning oldida turgan asosiy to'sqinliklarni tashkil etadi. Shu bilan birga, o'zgarishlarga qarshilikni bartaraf etish, maxfiylik va xavfsizlik bilan bog'liq muammolarni hal qilish, va elektron to'lov tizimlariga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, ularni qabul qilish va kengroq foydalanishni rag'batlantirishda muhim o'rinn tutadi.

<sup>6</sup> Stat.uz ma'lumotlari

O'zbekistonda yashirin iqtisodiyotning keng tarqalganligi va chuqur ildiz otganligi, ayniqsa, turli sohalarda norasmiy iqtisodiy faoliyatning kengayishi, elektron to'lov tizimlariga o'tishning oldidagi jiddiy to'siqlardan biridir. Elektron to'lov tizimiga o'tish jarayonida soliq to'lashdan bo'yin tov lash, korruptsiya, shuningdek, samarali tartibga soluvchi mexanizmlarning yo'qligi kabi norasmiy iqtisodiy faoliyatlarning sabablarini bartaraf etish zarur. Yashirin iqtisodiyotning hajmini qisqartirishda, me'yoriy-huquqiy bazani mustahkamlash, ijro mexanizmlarini takomillashtirish va moliyaviy shaffoflikni rag'batlantirish eng muhim omillardan biri bo'ladi.

Elektron to'lov tizimlarining samarali boshqarilishini ta'minlash, iste'molchilar huquqlarini himoya qilish, shuningdek, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish qoidalariga to'liq rioya etish uchun keng qamrovli me'yoriy-huquqiy va siyosat bazasini yaratish talab etiladi. Normativ-huquqiy hujjatlarni xalqaro standartlarga moslashtirish va davlat idoralari, moliya institutlari, texnologiya provayderlari o'rtaсидаги samarali hamkorlikni rivojlantirish elektron to'lov tizimlari uchun qulay muhit yaratishda muhim omil bo'ladi.

Ushbu muammolarni hal qilish uchun davlat organlari, moliya institutlari, texnologiya provayderlari va boshqa manfaatdor tomonlarning elektron to'lov tizimlarini joriy etishga ko'maklashish, moliyaviy inklyuzivlikni oshirish va O'zbekistonda yashirin iqtisodiyotning tarqalishini kamaytirishga qaratilgan muvofiqlashtirilgan sa'y-harakatlar zarur bo'ladi. Ushbu to'siqlarni bartaraf etish va maqsadli strategiyalarni amalga oshirish orqali O'zbekiston yanada shaffof, samarali va inklyuziv moliyaviy ekotizimni barpo etish yo'lida sezilarli yutuqlarga erishishi mumkin.

## XULOSA

Shunday qilib, elektron tijoratning O'zbekiston iqtisodiyotida kelgusi rivojlanish tendensiyalari quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha namoyon bo'lishi mumkin:

✓ qulaylik va moslashuvchanlik: elektron tijorat platformalari orqali iste'molchilar va biznes subyektlari o'zaro savdo qilishda tezkor va samarali bo'lib, savdolarni amalga oshirishda yanada yuqori darajada erkinlikka ega bo'ladilar. Bu holat, o'z navbatida, iqtisodiy faoliyatni tezlashtirish va samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

✓ ko'p to'lov usullari va integratsiya: kelgusida elektron tijorat platformalarida ko'plab to'lov tizimlari integratsiyasi amalga oshiriladi, bu esa tranzaktsiyalarni yanada qulay va xavfsiz qiladi. To'lov tizimlarining ko'pligi bizneslar va mijozlar uchun keng tanlov imkoniyatlarini taqdim etadi, bu esa iqtisodiy jarayonlarni optimallashtiradi.

✓ xalqaro savdo va global integratsiya: elektron tijoratning rivojlanishi Xalqaro savdoni yanada soddalashtiradi va mahalliy bizneslar uchun global bozorlarga kirish imkoniyatlarini ochadi. Bu esa O'zbekistonning iqtisodiy integratsiyasini oshirib, xalqaro savdo sohasida hamkorlikni kengaytiradi.

✓ to'lov xavfsizligi va kiberxavfsizlik: elektron tijorat tizimlarida to'lovlarни amalgа oshirish xavfsizligini ta'minlash uchun ilg'or kiberxavfsizlik choralarini joriy etish zarur. To'lovlar xavfsizligi platformalarida integratsiyalashgan texnologiyalar va o'zaro ishlovchi interfeyslar orqali ta'minlanadi, bu esa foydalanuvchilarning ishonchini mustahkamlaydi.

✓ yangi ish o'rirlari va iqtisodiy imkoniyatlar: elektron tijorat platformalari orqali mahalliy kompaniyalar global savdo tizimiga qo'shib, yangi ish o'rirlarini yaratish va iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu, ayniqsa, yoshlар va yangi startaplar uchun yangi ishbilarmonlik va tadbirkorlik yo'nalishlarini yaratadi.

✓ to'lovlarни jalb qilish va biznesni rivojlantirish: elektron tijorat platformalari orqali mijozlar va biznes subyektlari to'lov tizimlari bilan bevosita bog'lanib, o'zaro hisob-kitoblarni amalgа oshirishi mumkin. Bu jarayon muvaffaqiyatli amalgа oshirilgan holda, o'zaro ishonchni mustahkamlash va to'lovlar jarayonini yanada optimallashtirishga olib keladi, shuningdek, xizmatlar va mahsulotlarni sotishda yangi imkoniyatlar yaratadi.

Shunday qilib, elektron tijoratning rivojlanishi nafaqat O'zbekiston iqtisodiyotining raqamlashtirish darajasini oshiradi, balki yangi iqtisodiy imkoniyatlar yaratish, xalqaro savdo maydonlarida ishtirok etishni kengaytirish va iqtisodiy jarayonlarning samaradorligini oshirish uchun kuchli poydevor bo'lib xizmat qiladi. O'zbekistonning elektron tijorat tizimini rivojlantirish yo'lida amalgа oshirilgan sa'y-harakatlar mamlakatning moliyaviy va iqtisodiy tizimini yanada shaffof va samarali qilishga xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston – taraqqiyot va bunyodkorlik yo'li / Sh.M. Mirziyoyev. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – 432 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-oktyabrdagi "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash to'g'risidagi PQ-6079-sonli qarori.
3. To'qtasimov M. va boshqalar. Kichik biznes va xususan tadbirkorlik asoslari / M. To'qtasimov va boshqalar. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020. – 256 b.
4. Qodirov N., Karimov Sh. Raqamli iqtisodiyot: nazariy asoslari va rivojlanish yo'nalishlari / N. Qodirov, Sh. Karimov. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. – 384 b.
5. OECD. Digital Transformation of SMEs / Organisation for Economic Co-operation and Development. – 2022. – URL: <https://www.oecd.org> (sana olish: 15.04.2025).
6. World Bank. Doing Business 2020: Comparing Business Regulation in 190 Economies / World Bank Group. – Washington, DC, 2021. – 320 p.
7. Pazilidinov M.M. Raqamli iqtisodiyotning vujudga kelishi va rivojlanish bosqichlari. – Yangi O'zbekiston iqtisodiyoti journali, 2023. – №9. – B. 48.
8. Pazilidinov M.M. Development tendencies of electronic commerce in Uzbekistan. – Actual Problems of Humanities and Social Sciences, Volume 4 | Special Issue 3, 2024. – P. 87.

9. Aripov O., Pazilidinov M.M. Development Tendencies of the Digital Economy in Uzbekistan. – International Interdisciplinary Research Journal, Volume 2, Issue 5, 2023.
10. Pazilidinov M.M. Dynamics of internet and social networks use in Uzbekistan. – Journal of Management Value & Ethics. – 2023. – Vol. 14, No. 02. – P. 97.
11. Pazilidinov M.M. O‘zbekistonda raqamli media bozori daromadlarining tendensiyalari tahlili. – “Boshqaruv va biznes sohalarida matematika modellashtirishning zamonaviy muammolari” mavzuida respublika ilmiy-amaliy onlayn anjumani. – Namangandan, 2024-yil, 15-16-may. – B. 90.
12. Pazilidinov M.M. O‘zbekistonda raqamli reklama xarajatlarining tendensiyalari tahlili. – Globallashuv sharoitida Markaziy Osiyo Respublikalarning iqtisodiy transformatsiyasi. – Farg‘ona, 2024. – B. 152.
13. Pazilidinov M.M. O‘zbekistonda elektron tijoratning rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar va ularning tahlili. – Iqtisodiy o‘ch spirralli innovatsiyalar tizimini shakllantirish: yangi yondashuvlar va rivojlanish istiqbollari xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami. – Namangand: “Yashin print servis”, 2024. – 432 b.
14. Pazilidinov M.M. Wide implementation of digital technologies in small business and private entrepreneurship. – International conference “Law, Economics and Tourism Sciences in the Modern World”, Paris, France, 2023.